O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2021-yil 6-apreldagi PQ-5054-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2021-yil 6-apreldagi PQ-5054-son qarori 9-bandiga muvofiq Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (keyingi o‘rinlarda — Institut) etib qayta nomlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kuyidagilar Institutning asosiy vazifalari etib belgilansin:

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya instruktorlari, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari, oliy ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishlari bo‘yicha rahbar va pedagog kadrlari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari, sport maktablarining rahbar kadrlari, instruktor-metodistlari, maxsus fan o‘qituvchilari, trenerlari, psixologlari, sport psixologlari, tarbiyachilari, maxsus xizmat xodimlari hamda sport tashkilotlarining jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislari (keyingi o‘rinlarda — jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar)ni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

davlat ta’lim standartlari hamda kasbga doir bilim va ko‘nikmalarga qo‘yilgan talablar asosida mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda, kasbiy ma’lumotga ega bo‘lmagan sport ta’lim muassasalari xodimlari uchun qo‘shimcha ixtisoslik bo‘yicha pulli asosda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni kasbiy, ma’naviy-axloqiy saviyasini oshirish, sport ta’lim tizimini ilmiy-metodik ta’minlash, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish;

o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga, xususan, sport ta’lim muassasalari amaliyotiga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o‘qitishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

davlat va nodavlat sport ta’lim muassasalari, sport tashkilotlari va jamiyatlari samaradorligini oshirish maqsadida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarga trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanish bo‘yicha malaka sertifikatiga ega bo‘lishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish va o‘z filiallari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish;

xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, konferensiyalar, ko‘rgazmalar va boshqa tadbirlar o‘tkazish orqali jismoniy tarbiya va sport sohasida mamlakatimiz yutuqlarini xalqaro darajada keng yoritish, xorijiy sport ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

Institut jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashgan davlat ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi;

Institutning Nukus, Samarqand va Farg‘ona filiallari (keyingi o‘rinlarda — filiallar) uning yuridik shaxs bo‘lgan tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi;

Institut va filiallar xodimlariga oliy ta’lim muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash miqdorlari va shartlari tatbiq etiladi;

ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishdan tushgan budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan Institut va filiallar professor-o‘qituvchilari va xodimlari lavozim maoshlariga yagona tarif setkasi (bazaviy

lavozim maoshi) bo‘yicha mehnatga haq to‘lashning tasdiqlangan razryadlariga ko‘ra 200 foizgacha ustama haq to‘lash amalga oshiriladi;

Institut va filiallar faoliyatini moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari, shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan tushumlar, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

4. Quyidagilar:

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti filiallarining namunaviy tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha umumiy talablarni belgilash hamda baholash mezonlarini tasdiqlash;

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar malakasini oshirishni bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri), muqobil, mustaqil, ilmiy-tadqiqot muassasalarida va xorijda tajriba orttirish shakllari bo‘yicha amalga oshirish hamda malaka oshirish shakllarining umumiy davomiyligini kamida 4 hafta (144 soat) etib belgilash, malaka oshirishning bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) shakli uchun auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ishlarning hajmi haftasiga 36 soat etib belgilash;

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlashni pedagogik va kasbiy hamda maxsus o‘quv kurslarda o‘qitish shakllari bo‘yicha amalga oshirish hamda qayta tayyorlash davomiyligi va o‘quv yuklamasi hajmini pedagogik va kasbiy qayta tayyorlashni — kamida 4 oy (576 soat), maxsus o‘quv kurslarini — 3 oy (432 soat), 6 oy (864 soat), 10 oy (1440 soat) etib belgilash;

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash, malaka oshirish va maxsus o‘quv kurslari tinglovchilarini kurs yakuni yuzasidan ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish darajasini aniqlash va baholash tartibi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, tizimida maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim muassasalari va oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar har yili 15-noyabrga qadar ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning egallab turgan lavozimiga ko‘ra malaka oshirish kurslaridan o‘tishi bo‘yicha belgilangan davriylikni inobatga olgan holda, keyingi kalendar yilda malaka oshirish kurslariga o‘qishga yuboriladigan tinglovchilar kontingentini shakllantirib, O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligiga taqdim etib borsinlar.

7. O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi:

bir oy muddatda Institutning ustavini ishlab chiqib, tasdiqlasin va uni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin;

uch oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Institut va uning filiallari professor-o‘qituvchilar tarkibining o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlarini belgilash qoidalarini, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo‘yiladigan davlat ta’lim talablarini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin;

Institut va uning filiallari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash choralarini ko‘rsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi Sportni rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2022-yilda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mavjud muammolarning ilmiy yechimini ta’minlashga qaratilgan amaliy va innovatsion loyihalarni tanlovlar asosida shakllantirib, belgilangan tartibda moliyalashtirishni tashkil etsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2022-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining parametrlarini shakllantirishda Institut va uning filiallari faoliyati hamda ularga yuklangan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq xarajatlarni “Ta’lim” sohasiga ajratilgan mablag‘lar doirasida moliyalashtirilishini nazarda tutsin.

Institutga 3 ta, shu jumladan 2 ta shaxsan biriktirilgan va 1 ta navbatchi avtotransport vositasini saqlashga limit ajratilsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi Institutning bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash ishlarini o‘rnatilgan tartibda sohaga ajratilgan limitlar doirasida investitsiya dasturlarini shakllantirishda inobatga olish va takliflarni belgilangan tartibda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritishni ta’minlasin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 4-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

13. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi sport vaziri A.I. Ikramov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV


Toshkent sh.,
2022-yil 4-iyul,
355-son

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi 355-son qaroriga
1-ILOVA

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining

TUZILMASI






Xodimlarning umumiy cheklangan soni (texnik, xizmat ko‘rsatuvchi, o‘quv-yordamchi xodimlar va professor-o‘qituvchilar tarkibidan tashqari) — 35 nafar, shu jumladan boshqaruv xodimlari soni — 19 nafar.

* Xo‘jalik bo‘limining texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari hamda kafedralarning o‘quv-yordamchi xodimlari soni qonunchilik hujjatlarida oliy ta’lim muassasalari uchun belgilangan normativlarga muvofiq aniqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi 355-son qaroriga
2-ILOVA

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti filiallarining

NAMUNAVIY TUZILMASI



Xodimlarning umumiy cheklangan soni (texnik, xizmat ko‘rsatuvchi, o‘quv-yordamchi xodimlar va professor-o‘qituvchilar tarkibidan tashqari) — 16 nafar, shu jumladan boshqaruv xodimlari soni — 11 nafar.

Nukus, Samarqand va Farg‘ona filiallari xodimlarining umumiy cheklangan soni (texnik, xizmat ko‘rsatuvchi, o‘quv-yordamchi xodimlar va professor-o‘qituvchilar tarkibidan tashqari) — 48 nafar, shu jumladan boshqaruv xodimlari soni — 30 nafar.

* Xo‘jalik bo‘limining texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari hamda kafedralarning o‘quv-yordamchi xodimlari soni qonunchilik hujjatlarida oliy ta’lim muassasalari uchun belgilangan normativlarga muvofiq aniqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi 355-son qaroriga
3-ILOVA

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim muassasalari, oliy ta’lim muassasalari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari, sport maktablari hamda sport tashkilotlarining jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar — davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya instruktorlari, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari, oliy ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishlari bo‘yicha rahbar va pedagog kadrlari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari, sport maktablarining rahbar kadrlari, instruktor-metodistlari, maxsus fan o‘qituvchilari, trenerlari, psixologlari, sport psixologlari, tarbiyachilari, maxsus xizmat xodimlari hamda sport tashkilotlarining jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar (keyingi o‘rinlarda — jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar);

pedagogik qayta tayyorlash — oliy va o‘rta maxsus ma’lumotga ega pedagog bo‘lmagan mutaxassislarning bazaviy kasbiy ma’lumotini ta’limning tegishli turi malaka talablari bilan belgilanadigan o‘quv-tarbiya jarayonining talab etiladigan sifatini ta’minlovchi darajada pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli bo‘lgan tayyorgarlikka muvofiqlashtirish maqsadida mutaxassislarni qayta tayyorlash;

kasbiy qayta tayyorlash — oliy va o‘rta maxsus pedagogik ma’lumotga ega mutaxassislar tomonidan ta’limning tegishli turi malaka talablari bilan belgilanadigan, o‘qitishning talab etiladigan sifatini ta’minlaydigan darajada jismoniy tarbiya fani bo‘yicha pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur hajmda yangi kasbiy bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni o‘qitish;

maxsus o‘quv kurslari — sport faoliyatini yakunlagan sportchilarning trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari, pedagogik faoliyatni yuritish, zarur va yetarli hajmda yangi bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘rgatish;

bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) malaka oshirish — ta’lim dasturlari va mehnat bozorining takliflari asosida, ta’limning tegishli turi o‘quv-tarbiya jarayonining monitoringi natijalari va mutaxassislar tayyorlash sifatini hisobga olgan holda davlat ta’lim talablariga muvofiq ishlab chiqilgan modullar bo‘yicha maqsadli kasbiy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish;

mustaqil malaka oshirish — ta’lim darajasi va sifatiga qo‘yiladigan davlat ta’lim talablariga muvofiq yangi bilimlar, malaka, ko‘nikma va kompetensiyalarni jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislari tomonidan mustaqil o‘zlashtirish, o‘zini-o‘zi kasbiy mahoratini rivojlantirish shakli;

masofaviy qayta tayyorlash va malaka oshirish — onlayn (masofadan turib o‘qitish metodlari qo‘llaniladigan va o‘z bilimlarini mustaqil oshirishi uchun videoma’ruzalar, maslahatlar, nazorat turlarini masofadan turib real vaqt rejimida o‘tkazish) va offlayn (masofaviy ta’lim platformasidagi tegishli o‘quv-metodik resurslarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish hamda o‘z bilimlarini mustaqil oshirish) shaklida masofadan o‘qitish orqali amalga oshiriladigan ta’lim turi;

muqobil malaka oshirish — mustaqil malaka oshirish shakllaridan foydalanib, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning kasbiy faoliyati bo‘yicha erishgan individual natijalari tasdig‘ini amaldagi bevosita malaka oshirish shakllariga tenglashtirilgan shakli;

ilmiy-tadqiqot muassasalarida tajriba orttirish — O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, markazlar, laboratoriyalar va boshqa muassasalarda mutaxassislarni fanning

zamonaviy yutuqlari, tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, ilmiy tadqiqot uslublarini o‘rganish;

xorijda tajriba orttirish — O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi, xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatimiz ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga ko‘maklashish uchun ajratilgan grantlarga muvofiq, shuningdek, ta’limni boshqarish organlari bilan ta’lim va sport ta’limi muassasalari hamda sport tashkilotlari tajribalarini o‘rganish;

kasbiy faoliyati natijalari — jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning kasbiy faoliyatida erishgan natijasi, tayyorlagan sportchilari va ularning erishgan yutuqlari, o‘quv adabiyotlari va ilmiy-tadqiqot ishlari, ratsionalizatorlik takliflari, patentlar hamda mualliflik guvohnomalari.

3. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo‘nalishlari hamda masofaviy qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik) tomonidan tasdiqlanadi.

4. Xorijiy davlatlarda ta’lim muassasalarini tamomlagan jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ularning bazaviy ma’lumoti to‘g‘risidagi hujjatini belgilangan tartibda nostrifikatsiyadan o‘tkazgandan keyin amalga oshiriladi.

5. Vazirliklar va idoralar tizimidagi ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislari Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (keyingi o‘rinlarda — Institut) va uning filiallarida Vazirlik tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan, nodavlat ta’lim tashkilotlarining xodimlari va jismoniy shaxslar esa — ixtiyoriy ravishda ular bilan tuzilgan to‘lov shartnoma asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o‘tadilar.

Oliy ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya va sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi hamda olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari, ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari va qayta tayyorlash kurslari bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya va sport faoliyati yo‘nalishlarining 3 va 4-kurslarida tahsil olayotgan talabalari tegishli sport turi bo‘yicha trener lavozimiga ishga qabul qilinganda, ularga Institut tomonidan uch yil muddatga malaka sertifikati beriladi.

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning diplomida bittadan ortiq yo‘nalish, mutaxassislik yoki ixtisoslik ko‘rsatilgan bo‘lsa, ular mashg‘ulot olib borayotgan har bir sport turi bo‘yicha ta’lim muassasasining tavsiyasi asosida alohida malaka oshirish kurslaridan o‘tadilar.

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar faoliyat yuritayotgan (yoki ishga qabul qilinayotgan) asosiy yoki o‘rindoshlik asosidagi ish joylari orqali malaka oshirish kurslariga jalb etiladi.

5^1. Sport ta’lim muassasalari va tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan trenerlar, shuningdek, trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagini bildirgan talabgorlar:

trener kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha oliy yoki o‘rta maxsus (professional) ma’lumotga ega bo‘lganda — diplomda ko‘rsatilgan sport turi (turlari) bo‘yicha;

jismoniy tarbiya sohasida kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’lim yo‘nalishlari (trener kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’lim yo‘nalishlaridan tashqari) oliy yoki o‘rta maxsus (professional) ma’lumotga ega bo‘lganda — kamida birinchi sport razryadiga (kattalar) ega bo‘lgan o‘z sport turi (turlari) bo‘yicha;

oliy yoki o‘rta maxsus (professional) ma’lumotga (jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishlaridan tashqari) ega bo‘lganda — jismoniy tarbiya ma’lumotiga ega bo‘lish nazarda tutilmagan sport turlari ro‘yxatiga kiritilgan va kamida sport ustaligiga nomzod bo‘lgan sport turi (turlari) bo‘yicha malaka oshirish kurslaridan o‘tadilar.

Bunda sport federatsiyalari (uyushmalari)ning tavsiyanomalari asosida Vazirlik tomonidan, istisno tariqasida, sport razryadisiz qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o‘tishga ruxsat etiladi.

2-bob. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning maqsadi va asosiy vazifalari

6. Qayta tayyorlash faoliyatining maqsadi — jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lmagan kadrlarni jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishga qo‘shimcha kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarning zarur hajmini egallashiga erishish.

7. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lmagan kadrlarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonida talab etiladigan sifatini ta’minlaydigan darajadagi faoliyatni olib borishga zarur va yetarli kasbiy tayyorgarlikni ta’minlash qayta tayyorlash faoliyatining vazifasi hisoblanadi.

8. Malaka oshirish faoliyatining maqsadi — kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta’minlash, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladigan zarur hajmini egallashini ta’minlash.

9. Malaka oshirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq sport ta’limi sifatini ta’minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish;

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning o‘quv mashg‘ulotlari, o‘quv-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda ilg‘or ta’lim texnologiyalari va xalqaro tajribadan foydalanish, ilmiy va o‘quv-metodik tadqiqotlar olib borish hamda amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini mustahkamlash;

malaka oshirishning bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) va bilvosita shakllarini amaliyotga joriy etish va doimiy monitoringini olib borish;

malaka oshirish jarayonlarini tashkil etishda Internet jahon axborot tarmog‘i, multimedia tizimlari, masofadan o‘qitish usullaridan unumli foydalanish, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirish;

ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ta’lim dasturlarini doimiy yangilab borish hamda ta’lim jarayoniga joriy etish;

kasbiy bilim, ko‘nikma va malakani uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq professional ta’lim sifatini ta’minlashga qaratilgan kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish;

mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, pedagogik yangilikka intilishni rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

ilmiy-pedagogik salohiyatdan kelib chiqib, malaka oshirishning kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo‘naltirilgan shakllarini mustaqil tanlash va o‘zlashtirish;

ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash orqali jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning tayyorgarligi sifatiga qo‘yiladigan malakaviy talablarni takomillashtirish.

3-bob. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni hamda sifatiga qo‘yiladigan umumiy talablar

10. Quyidagilar qayta tayyorlash va malaka oshirish bo‘yicha ta’lim dasturlari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar hisoblanadi:

kasblar va lavozimlarga bo‘lgan malaka talablariga muvofiqlik;

ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini, ta’lim turlari va bosqichlari bo‘yicha davlat talablarining uzluksizligi va uzviyligini ta’minlashga, tinglovchilarning bilimlarini yangilash va chuqurlashtirishga, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olishga, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni hosil qilishga, ta’limning samarali usullari hamda texnologiyalarini egallash va takomillashtirishga qaratilganlik;

davlat ta’lim talablari hajmi va mazmunining qayta tayyorlash va malaka oshirish muddatlariga hamda tegishli qonunosti hujjatlariga muvofiqligi.

11. Ta’lim dasturi ilm-fan, pedagogik va innovatsion texnologiyalarning so‘nggi yutuqlariga muvofiq tashkil etilishi hamda ta’lim turlari o‘rtasida uzluksizlik va uzviylikni ta’minlash talablariga mos bo‘lishi kerak.

Ta’lim dasturlarida ta’lim oluvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil izlash va ularni o‘zlashtirish nazarda tutilishi lozim.

Institutning o‘quv rejasi va dasturlarini tuzish, ekspertizadan o‘tkazish, tasdiqlash va ularni ta’lim jarayoniga joriy etish vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

12. Qayta tayyorlash va malaka oshirishning sifati jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni tayyorgarlik darajasi, bilimi, ko‘nikmasi hamda kasbiy mahorati, ularga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi.

13. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridagi o‘quv jarayoni o‘quv rejalari va dasturlari asosida amalga oshiriladi hamda uning mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablar tegishli ta’lim dasturlari bilan belgilanadi.

4-bob. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash shakllari

14. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash o‘qitish sifatiga qo‘yiladigan talablarni oshirishni va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari bo‘yicha yangi kasb bilimlari, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi.

15. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

pedagogik qayta tayyorlash;

kasbiy qayta tayyorlash;

maxsus o‘quv kurslarda o‘qitish.

16. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash kurslari yuridik va jismoniy shaxslarning buyurtmalari yoki mehnat bozorining talablari belgilanadigan ayrim pedagoglarning qayta ixtisoslashuvi yoki yangi mutaxassislikka ega bo‘lishi munosabati bilan Institut tashabbusiga ko‘ra to‘lov shartnoma asosida tashkil etiladi.

Institut qayta tayyorlash kurslarida o‘qitish bo‘yicha murojaatlarni qabul qiladi, o‘rganib chiqadi, kontingentni shakllantiradi hamda kurslarni tashkil etish muddatini belgilaydi.

5-bob. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar malakasini oshirishning shakllari

17. Malaka oshirish quyidagi shakllarni o‘z ichiga oladi:

bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) malaka oshirish;

masofaviy malaka oshirish;

muqobil malaka oshirish;

mustaqil malaka oshirish.

ilmiy-tadqiqot muassasalarida tajriba orttirish;

xorijda tajriba orttirish;

Mustaqil va muqobil shakllarda malaka oshirishning mazmuni davlat ta’lim talablarida aks ettiriladi.

17^1. Ta’lim olish shakllari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi) — jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning o‘z ish joylaridan to‘liq ajralgan holda bevosita ta’lim olishi;

b) ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (kechki, masofaviy):

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning o‘z mehnat faoliyatidan bo‘sh vaqtida (ish vaqtidan tashqari vaqtda yoki boshqa hollarda) ta’lim olishi;

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida 3+1 tizimi bo‘yicha (75 foiz masofaviy, 25 foiz bevosita) yoki 2+2 tizimi bo‘yicha (50 foiz bevosita, 50 foiz masofaviy) va/yoki 1+3 tizimi bo‘yicha (25 foiz bevosita, 75 foiz masofaviy) ta’lim olishi.

18. Mustaqil malaka oshirish quyidagicha amalga oshiriladi:

ochiq o‘quv mashg‘ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish;

sport, hakamlik va malaka toifasiga ega bo‘lish;

o‘quvchi va sportchilar bilan ishlash, seminar-treninglar tashkil etish;

sport musobaqalari va turli ko‘rik-tanlovlarda sovrindor o‘quvchi va sportchilarni tayyorlash;

darsdan tashqari sport turlari bo‘yicha to‘garaklar tashkil etish;

ilmiy konferensiyalarda ma’ruzalar bilan ishtirok etish yoki ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish;

mustaqil tajriba orttirish;

o‘quv-uslubiy adabiyotlar tayyorlash va nashrdan chiqarish.

19. Muqobil malaka oshirish shakllari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozi”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi”, “O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston iftixori”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi” faxriy unvonlariga ega bo‘lish;

so‘nggi 4 yilda Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan sportchilar va ularni tayyorlagan trenerlar;

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi ilmiy unvoniga ega bo‘lish;

so‘nggi 4 yilda falsafa doktori (PhD) yoki mutaxassislik bo‘yicha fan doktori (DSc) darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilish;

so‘nggi 4 yilda kamida bitta mutaxassislik bo‘yicha fan doktori (DSc) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiya ishiga ilmiy maslahatchi yoki falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun himoya qilingan 2 ta dissertatsiya ishiga ilmiy rahbarlik qilish;

so‘nggi 2 yilda mutaxassislik bo‘yicha dotsent yoki professor ilmiy unvoni olgan;

so‘nggi 4 yilda xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o‘tash (malaka oshirishning davomiyligi bir oydan kam bo‘lmagan, stajirovkaning davomiyligi uch oydan kam bo‘lmagan muddatda);

so‘nggi 2 yilda yakka mualliflikda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha darslik yoki o‘quv qo‘llanma tayyorlash va nashrdan chiqarish;

Xalqaro shaxmat federatsiyasidagi (FIDE) reytingi bo‘yicha 1 800 va undan yuqori ball to‘plagan bo‘lishi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozi”, “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi”, “Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta’limi o‘qituvchisi” va “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi” faxriy unvonlariga ega bo‘lish;

tuman (shahar)larning “Eng yaxshi maktab sport klubi” reytingida 1 — 5-o‘rinlarni egallagan umumta’lim maktablarining jismoniy tarbiya o‘qituvchilari;

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar kasbiy faoliyati natijalarini baholash mezonlari bo‘yicha 85 va undan yuqori ball to‘plagan.

20. Masofadan o‘qitish asosidagi malaka oshirish kurslarida o‘quv mashg‘ulotlari onlayn va offlayn shakllarda o‘tkaziladi.

6-bob. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining davomiyligi hamda o‘quv yuklamasining hajmi

21. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning malakasini oshirish davomiyligi uni tashkil etish shakllariga hamda kasbiy malaka darajasi va individual kasbiy ehtiyoji tizimida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislari mavjud bo‘lgan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar (keyingi o‘rinlarda — buyurtmachi) talablarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

22. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar to‘rt yilda kamida bir marta malaka oshirishlari shart.

Malaka oshirish shakllarining umumiy davomiyligi kamida 4 hafta (144 soat) etib belgilanadi.

Malaka oshirishning bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) shakli uchun auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ishlarning hajmi haftasiga 36 soat etib belgilanadi.

Ayrim hollarda malaka oshirishning bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) shakli umumiy davom etish muddati, asosiy ishdan ajralgan holda o‘qitishda, kamida 3 hafta (144 soat), auditoriya

mashg‘ulotlarining va mustaqil ishlarning eng yuqori hajmi haftasiga 48 soat etib belgilanishi mumkin.

23. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash davomiyligi va o‘quv yuklamasining hajmi:

pedagogik qayta tayyorlash — kamida 4 oy (576 soat);

kasbiy qayta tayyorlash — kamida 4 oy (576 soat);

maxsus o‘quv kurslari — 3 oy (432 soat), 6 oy (864 soat), 10 oy (1440 soat) etib belgilanadi.

24. Sport faoliyatini yakunlagan (kamida I kattalar razryadi) sportchilar trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun sport turlari bo‘yicha trener, sport pedagogikasi va psixologiyasi bo‘yicha 3 oylik (oliy ma’lumotli sportchilar uchun), 6 oylik (o‘rta va o‘rta maxsus ma’lumotli sportchilar uchun) va 10 oylik (o‘rta ma’lumotli sportchilar uchun) maxsus o‘quv kurslarida, to‘lov shartnoma asosda o‘qitiladi.

25. Auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ishlarning haftalik yuklamasi eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat etib belgilanadi.

26. Auditoriya mashg‘ulotlarining barcha turlari 80 daqiqa davom etadi, o‘quv mashg‘ulotlari oralig‘idagi tanaffus kamida 10 daqiqani tashkil etadi.

7-bob. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda malaka oshirish kurslarini tashkil etish va o‘tkazish

27. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridagi o‘quv jarayonlari 15 — 25 nafar tinglovchidan iborat akademik guruhlarda tashkil etiladi.

Istisno tariqasida, tinglovchilar kontingenti yetarli bo‘lmagan yo‘nalishlarda, shu jumladan rus tilida dars olib boriladigan guruhlarda, tinglovchilar kontingenti guruh tarkibida yig‘ilmaydigan kam sonli alohida sport turlarida o‘quv jarayonini tashkil etishda tinglovchilar soni kamida 5 nafar etib belgilanishi mumkin. Malaka oshirish kurslari uchun guruh talab etilgan tarkibda shakllanmagan taqdirda, tinglovchilar kontingentini o‘qitish turdosh sport turlari va malaka oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlar tarkibida amalga oshiriladi.

Malaka oshirish kurslarida tinglovchilar kontingenti yetarli bo‘lmagan yo‘nalishlarda, shuningdek, homilador ayollar, uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga yoki uch yoshga to‘lmagan bolani yolg‘iz o‘zi tarbiyalayotgan ota (vasiy)lar, sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining respublika kalendar-rejasiga kiritilgan o‘quv-mashg‘ulotlar yig‘inlari va musobaqalarga jalb etilganlar, istisno tariqasida, Institut va uning filiallari rahbarining buyrug‘iga muvofiq masofaviy ta’lim shaklida malaka oshirishlari mumkin.

28. Kurslarga tinglovchilarni qabul qilish tasdiqlangan reja-jadval va jo‘natuvchi tomonlarning buyrug‘i asosida Institut va filiallar rahbarining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi. Malaka oshirish kurslariga tinglovchilarni qabul qilish to‘g‘risidagi buyruq kurslar boshlanishi sanasidan boshlab 3 kun mobaynida rasmiylashtiriladi.

29. Qayta tayyorlash yoki malaka oshirishga yuborilgan jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar Institut va filiallar rahbarlarining buyrug‘i bilan tinglovchilar safiga qabul qilinadi.

30. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari boshlangandan keyin uch kun mobaynida kelmagan tinglovchilar, sabablaridan qat’i nazar, kurslarga qo‘yilmaydi.

31. Tinglovchilarning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga o‘z vaqtida kelmaganligining hujjat bilan tasdiqlangan uzrli sabablari bo‘lgan taqdirda ularga o‘qishning tegishli yo‘nalishi (mutaxassisligi) bo‘yicha navbatdagi kurslarda o‘qishga ruxsat beriladi. Tinglovchilarning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga o‘z vaqtida kelmaganligining hujjat bilan tasdiqlangan uzrli sabablari bo‘lmagan taqdirda ular kurslardan o‘tmagan hisoblanadi.

Joriy yilda rejaga kiritilgan tinglovchilar turli sabablarga ko‘ra egallab turgan lavozimidan ozod etilgan holatda, ularning o‘rniga hududiy boshqarma va tashkilotlar tomonidan tinglovchilar ro‘yxati taqdim etilishi mumkin.

32. Institut va filiallar tinglovchilarining qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga o‘z vaqtida kelmaganligi holatlari to‘g‘risida buyurtmachi va vazirlikka darhol xabar beradi.

33. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridagi o‘quv mashg‘ulotlari ma’ruza, onlayn ma’ruza, interfaol seminarlar, video darslar, amaliy mashg‘ulot, ko‘chma mashg‘ulot, tajriba

almashish, mahorat darslari, mustaqil o‘qish, masofadan o‘qitish, onlayn va boshqa shakllarda olib boriladi.

Ayrim tor ixtisoslik talab etiladigan va sport reyestriga yangi kiritilayotgan sport turlari bo‘yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun, istisno tariqasida, kamida bakalavr darajasiga ega yuqori malakali sport mutaxassislari jalb etiladi.

34. Ko‘chma, amaliy mashg‘ulotlar ilg‘or ta’lim va sport ta’limi muassasalari, sport majmualari va boshqa tashkilotlarda tashkil etiladi.

35. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ularni talab darajasida o‘tkazish, ta’lim samaradorligini ta’minlash uchun sharoitlar yaratish mas’uliyati Institut va filiallarga yuklanadi.

36. Joriy yilda rejaga kiritilmagan jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar Institut va filiallar bilan tuzilgan to‘lov shartnoma asosida malaka oshirish kurslaridan o‘tishlari mumkin.

37. Institut va filiallar buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganib chiqib, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etadi.

38. Institutda 3, 6 va 10 oylik maxsus o‘quv kurslarga murojaat etilgan yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda to‘lov shartnoma asosida tashkil etiladi.

39. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘quv jarayoni tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha tasdiqlangan namunaviy o‘quv rejasi va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan ishchi o‘quv rejasi va dasturlar asosida amalga oshiriladi hamda mashg‘ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

40. Namunaviy o‘quv rejasi va dasturlar ta’lim, sport, fan, texnika, texnologiyalar hamda sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari asosida takomillashtiriladi.

41. Institut rektori, prorektorlari va filiallar direktorlari, direktor o‘rinbosarlari hamda professor-o‘qituvchilari, bo‘lim boshliqlari, ilmiy xodimlariga oliy ta’lim muassasalarining tegishli xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash shartlari tatbiq etiladi. Bunda, bir nafar o‘qituvchi hisobiga to‘g‘ri keladigan tinglovchilar nisbatining cheklangan normativi Institut va filiallarda ta’lim jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda 1:10 nisbat etib belgilanadi.

Institut va uning filiallarida faoliyat ko‘rsatayotgan uslubchi va dasturchi-muhandislari shtat birliklari negizida bosh mutaxassis va yetakchi mutaxassis shtat birliklari joriy etiladi hamda mehnatga haq to‘lash shartlari bo‘yicha Institutning o‘qituvchi tarif stavkalari miqdori qo‘llaniladi.

42. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil qilish, ularni talab darajasida o‘tkazish, ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlash hamda tinglovchilarning yashashi uchun sharoit yaratish (tinglovchilar turar joyi mavjud bo‘lsa) Institut va uning filiallari zimmasiga yuklatiladi.

8-bob. Malaka oshirish kurslarining tinglovchilari

43. Vazirlik tomonidan tasdiqlangan rejaga kiritilgan malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun o‘qishning barcha davrida ularning asosiy ish joyi bo‘yicha egallagan lavozimi va o‘rtacha ish haqi saqlanadi, ularning o‘quv yuklamasi esa boshqa a’zolar o‘rtasida taqsimlanadi.

44. Ishdan ajralgan holda Institut va uning filiallariga malaka oshirishga yuborilgan tinglovchilar uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda xizmat safari xarajatlari safarga yuboruvchi tashkilot hisobidan qoplanadi.

45. Tinglovchi quyidagi sabablarga ko‘ra kursdan chetlashtiriladi:

o‘z xohishiga binoan;

kasalligi tufayli (tibbiy komissiya ma’lumotnomasi asosida);

o‘quv intizomini va ta’lim muassasasining ichki tartib-qoidalarini muntazam ravishda yoki bir marotaba qo‘pol ravishda buzganligi uchun;

malaka oshirish kursida 18 akademik soatdan ortiq, qayta tayyorlashda 36 akademik soatdan ortiq o‘quv mashg‘ulotlarini sababsiz qoldirgani uchun;

masofaviy qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari modullarini mashg‘ulotlar jadvaliga muvofiq to‘liq o‘zlashtirmagani uchun;

to‘lov shartnoma asosida o‘qiyotgan tinglovchilar shartnoma bilan bog‘liq majburiyatlarni bajarmagani uchun;

sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi sababli;

vafot etganligi sababli.

46. Tinglovchilar malaka oshirish yoki qayta tayyorlash kursidan chetlatilganda sabablari ko‘rsatilgan holda buyurtmachiga ma’lum qilinadi.

47. Malaka oshirish kursidan chetlatilgan yoki yakuniy attestatsiyadan o‘ta olmagan tinglovchi malaka oshirish kursida bir yil mobaynida takroran o‘qiydi. Malaka oshirish kursida takroran o‘qish tinglovchining o‘z hisobidan to‘lov shartnoma asosida amalga oshiriladi va bunda, buyurtmachi tashkilot tomonidan unga ish haqi saqlanmagan holda, ta’til berish tartibida malaka oshirishga qayta yuboriladi.

Malaka oshirish kursiga qayta yuborilgan jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar o‘qish yakunlari bo‘yicha yakuniy attestatsiyadan takroran o‘tmagan bo‘lsa, to‘lov shartnoma bo‘yicha to‘langan mablag‘lari qaytarilmaydi.

Malaka oshirish kurslarida o‘qish yakunlari bo‘yicha attestatsiyadan takroran o‘tmagan yoki asosiy ish joyi bo‘yicha belgilangan muddatda malaka oshirish kurslaridan takroran o‘tmagan taqdirda, ushbu xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatidan qat’iy nazar mehnat shartnomasi belgilangan tartibda ikki oy mobaynida bekor qilinadi. Ular o‘z faoliyatini boshqa ta’lim muassasalarida (tegishli ta’lim turidan tashqari) davom ettirishi yoxud boshqa tashkilotlarda ishlashi hamda o‘zining kasbiy malakasini mustaqil ravishda oshirishi mumkin.

Bunda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarga malaka oshirish kurslaridan o‘tishga hamda ular bilan asosiy ish joyi bo‘yicha mehnat shartnomasi bekor qilingan kundan bir yil o‘tgandan keyin to‘lov shartnoma asosida malakasini oshirishiga ruxsat beriladi. Buning uchun ular Institut va uning filiallariga malakasini oshirish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qiladilar.

9-bob. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi va uni boshqarish

48. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga quyidagilar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi;

tizimida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislari mavjud vazirliklar, idoralar hamda boshqa tashkilotlar (buyurtmachi).

49. O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi:

Institut va filiallar tizimiga umumiy rahbarlik qiladi hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

keyingi kalendar yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan malaka oshirish kurslari bo‘yicha taqdim etilgan buyurtmalar asosida reja va jadvallarni tasdiqlaydi;

Institut va uning filiallari tomonidan buyurtma va rejalar bajarilishi yuzasidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;

har yili 15-noyabrga qadar buyurtmachilarning buyurtmanomalari asosida hamda vazirlik tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o‘tish davriyligiga muvofiq keyingi kalendar yil uchun oylar va ta’lim yo‘nalishlari rejasi va ro‘yxatini shakllantiradi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish yillik rejasi hamda ro‘yxatini har yili 5-dekabrga qadar tasdiqlaydi;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining namunaviy o‘quv reja va dasturlarini ta’lim sohasidagi tegishli vazirliklar bilan kelishilgan holda tasdiqlaydi;

Institut va filiallar xodimlari hamda pedagoglar tarkibini institut, shuningdek xorijiy davlatlarning yetakchi ta’lim va ilmiy muassasalarida malakasini oshirish choralarini ko‘radi.

50. Buyurtmachi:

navbatdagi kalendar yilga jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar haqida ma’lumotlarni ularning familiyasi, ismi va otasining ismi, qachon va qaysi ta’lim muassasasini bitirganligi, diplom bo‘yicha mutaxassisligi, ish joyi va staji, lavozimi, oxirgi malaka oshirgan vaqti ko‘rsatgan holda Vazirlikka taqdim etadi;

tasdiqlangan reja va jadval asosida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni belgilangan muddatda Institut va filiallarga o‘qishga yetib borishlarini ta’minlaydi.

10-bob. Qayta tayyorlash kurslari tinglovchilarini attestatsiyadan o‘tkazish va baholash

51. Tinglovchilar qayta tayyorlash kurslari ta’lim dasturlarini o‘zlashtirib bo‘lgandan so‘ng, Institut tomonidan yakuniy attestatsiyadan o‘tkaziladi. Yakuniy attestatsiya suhbat va onlayn test sinovlaridan iborat bo‘ladi.

52. Yakuniy attestatsiya komissiyasi tarkibi kamida 5 kishidan iborat tarkibda Institut tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi.

53. Yakuniy attestatsiya komissiyasi tarkibiga Vazirlik, Institut uning filiallari, ta’lim muassasalari, sport maktablari, federatsiyalar, uyushmalar vakillari jalb qilinishi mumkin.

54. Yakuniy attestatsiya komissiyasi tarkibining uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

55. Qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari yakuniy attestatsiyasi suhbat va onlayn test sinovlari asosida umumiy 100 ballik tizimda baholanadi.

56. Qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari uchun suhbat umumiy 50 ballik mezon asosida baholanadi. Mezon Institut ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Mezon tinglovchilarning kasbiy-amaliy faoliyati bo‘yicha savollardan iborat bo‘ladi.

Suhbatda beshta yo‘nalishdan bittadan savollar avtomatlashtirilgan tarzda kompyuterda ixtiyoriy tanlanadi. Har bir savol 10 ballik tizimda baholanadi.

Bunda, suhbat savollari oldindan Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

Onlayn test qayta tayyorlash kurslari o‘quv rejasidagi barcha modullar bo‘yicha tayyorlangan test savollari asosida o‘tkaziladi. Onlayn test asosida tinglovchining bilim darajasi 50 daqiqa davomida 50 ta test savollari asosida 50 ballik baholash tizimi orqali aniqlanadi.

Onlayn test natijasi test yakunlanishi bilan darhol avtomatik tarzda ekranda aks ettiriladi. Ushbu test sinovlarini o‘tkazish Institutning serverida joylashtirilgan elektron tizimga kompyuterlarining ulanishi va test sinovlarini markazlashgan holda videokuzatuvini yozib borish orqali amalga oshiriladi.

Suhbat va onlayn test sinovlaridan umumiy 56 ball va undan yuqori ball to‘plagan tinglovchi yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan hisoblanadi va mazkur Nizomning 1-ilovasida keltirilgan davlat namunasidagi diplom beriladi.

57. Masofadan o‘qitish shakllari asosidagi qayta tayyorlash kurslarida tinglovchilarning o‘zlashtirishi onlayn shaklida qayd etib boriladi va kurslarni to‘liq o‘zlashtirgan tinglovchilarga qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarida o‘tkaziladigan yakuniy attestatsiyada bevosita ishtirok etishga ruxsat beriladi.

Masofadan o‘qitish shakllari asosidagi qayta tayyorlash kurslarini to‘liq o‘zlashtirmagan (56 foizdan kam) tinglovchilar navbatdagi kurslarda bir marotaba qayta o‘qishga ruxsat beriladi.

Tinglovchilar bevosita yakuniy attestatsiyada ishtirok etishi imkoniyati mavjud bo‘lmagan (karantin holati, favqulodda vaziyatlar) hollarda istisno tariqasida masofadan turib onlayn shaklda attestatsiyadan o‘tadilar.

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash kurslari ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq tashkil etiladi.

11-bob. Malaka oshirish kurslari tinglovchilarini attestatsiyadan o‘tkazish va baholash

58. Tinglovchilarning malaka oshirish kursi davomida olgan bilimlarini baholash maqsadida Institut va filiallar tomonidan attestatsiyadan o‘tkaziladi.

59. Attestatsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich kasbiy faoliyat natijalari, ikkinchi bosqich yakuniy onlayn test sinovlaridan iborat bo‘ladi.

60. Attestatsiyani o‘tkazish uchun Attestatsiya komissiyasi kamida 5 kishidan iborat tarkibda Institut va filiallar tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi.

61. Attestatsiya komissiyasi tarkibiga Institut va filiallar, oliy ta’lim muassasalari, sport maktablari, federatsiyalar (uyushmalar) vakillari jalb qilinishi mumkin.

62. Attestatsiya komissiyasi tarkibining uchdan ikki qismi ishtirok etsa vakolatli hisoblanadi.

63. Attestatsiya komissiyasi o‘z qarorini tinglovchining kasbiy faoliyat hamda onlayn test sinovlari natijalarini hisobga olgan holda qabul qiladi.

64. Attestatsiya komissiyasining qarori Institut va uning filiallari rahbarining kurslarni muvaffaqiyatli yakunlagan tinglovchilarga belgilangan namunadagi malaka sertifikati berish to‘g‘risidagi buyrug‘ini rasmiylashtirish uchun asos hisoblanadi.

65. Tinglovchilar ikki bosqich natijalariga ko‘ra baholanadi. Birinchi bosqich uchun 100 ball, ikkinchi bosqich uchun 50 ball.

Birinchi bosqich mazkur Nizomning 3-ilovasida keltirilgan jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar kasbiy faoliyati natijalarini baholash mezonlariga, ikkinchi bosqich modullar bo‘yicha tayyorlangan 50 ta test savollari asosida aniqlanadi.

66. Birinchi bosqich natijalariga ko‘ra 56 ball va undan yuqori ball to‘plagan tinglovchilar yakuniy attestatsiyadan ozod qilinadi, biroq malaka oshirish kursining o‘quv jarayoniga jalb etiladi.

67. Masofadan o‘qitish shakllari asosidagi kurslarda tinglovchilarning o‘zlashtirishi onlayn shaklida qayd etib boriladi va kurslarni to‘liq o‘zlashtirgan tinglovchilarga Institut va filiallarda o‘tkaziladigan attestatsiyada bevosita ishtirok etishga ruxsat beriladi.

68. Attestatsiyani birinchi bosqichi natijalariga ko‘ra 56 balldan kam to‘plagan tinglovchi ikkinchi bosqichga jalb etiladi.

Ikkinchi bosqich malaka oshirish kursi o‘quv rejasidagi modullar bo‘yicha tayyorlangan 50 ta test savollari asosida 50 daqiqa davomida 50 ballik baholash tizimi orqali aniqlanadi.

Birinchi bosqich natijalariga ko‘ra umumiy 100 balldan kamida 56 ball (56 foiz) yoki ikkinchi bosqich natijalariga ko‘ra umumiy 50 balldan 28 ball (56 foiz) to‘plagan tinglovchi attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan hisoblanadi hamda unga mazkur Nizomga 4-ilovaga muvofiq davlat namunasidagi elektron raqamli imzo (QR-kod) bilan tasdiqlangan hujjat (malaka sertifikati) beriladi.

Muqobil malaka oshirish shakllaridan birini amalga oshirgan jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislariga Institut va filiallarda o‘tkazilgan mahorat darsi natijasiga ko‘ra Attestatsiya komissiyasining qaroriga muvofiq davlat namunasidagi malaka sertifikati beriladi.

Birinchi bosqich natijalariga ko‘ra 56 ball (56 foiz)dan, ikkinchi bosqich natijalariga ko‘ra 28 ball (56 foiz)dan kam to‘plagan tinglovchi attestatsiyadan o‘tmagan hisoblanadi.

69. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning malaka toifalarini olishi (o‘zgartirishi) va egallab turgan lavozimlariga mosligi attestatsiyadan o‘tkazishda ular qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kurslaridan o‘tganligi to‘g‘risida hujjatning (diplom, malaka sertifikati) mavjudligi talab etiladi.

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni malaka oshirish kurslari ushbu Nizomning 5-ilovasiga muvofiq tashkil etiladi.

12-bob. Apellyatsiyalarni ko‘rib chiqish tartibi

70. Institut va uning filiallarida tinglovchilar apellyatsiyalarini ko‘rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

71. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga sport federatsiya (uyushma)lari, institut va filiallarning hamda sport ta’lim muassasalarining malakali mutaxassislari, taniqli sport vakillari, shuningdek Vazirlik xodimlari kiritiladi.

72. Apellyatsiya komissiyasining tarkibi Institut va uning filiallari rahbarlarining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Apellyatsiya komissiyasining ish tartibi apellyatsiya komissiyasini tashkil etish to‘g‘risidagi buyruqda belgilanadi.

73. Tinglovchi yoki uning buyurtmachisi yoxud ularning o‘rnini bosuvchilar (vasiylar) qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yakuniy attestatsiyasi to‘liq yakunlanib, natijasi e’lon qilingandan so‘ng uch kun davomida Institut va uning filiallarida tashkil etilgan apellyatsiya komissiyasiga yozma shaklda apellyatsiya shikoyatini berish huquqiga ega.

74. Tinglovchining murojaati qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmasa yoki belgilangan muddatdan kechikib taqdim etilsa tinglovchining apellyatsiyasi ko‘rib chiqilmaydi.

75. Murojaat etuvchi (tinglovchi) apellyatsiya komissiyasi tomonidan apellyatsiyani ko‘rib chiqilishi jarayonida ishtirok etishi mumkin.

Apellyatsiyani komissiyasining ishi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Apellyatsiyani ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha bayonnoma apellyatsiya komissiyasi raisi, a’zolari va da’vogar tomonidan imzolanadi.

76. Apellyatsiya shikoyati uch ish kunida apellyatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiyani ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

yakuniy attestatsiya komissiyasining qarorini o‘zgarishsiz qoldirish va apellyatsiyani qanoatlantirishni rad etish;

yakuniy attestatsiya komissiyasining qarorini bekor qilish va malaka sertifikatini berish to‘g‘risida.

77. Yakuniy attestatsiya komissiyasining qarorini o‘zgarishsiz qoldirish va apellyatsiyani qanoatlantirishni rad etish to‘g‘risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinadi:

apellyatsiya mazkur Nizom talablari buzilgan holda taqdim etilgan bo‘lsa;

apellyatsiyada keltirilgan sabablar o‘z tasdig‘ini topmasa.

78. Yakuniy attestatsiya komissiyasining qarorini bekor qilish va malaka sertifikatini berish to‘g‘risidagi qaror malaka imtihoni mazkur Nizom talablari buzilgan holda o‘tkazilgan taqdirda qabul qilinadi.

79. Malaka sertifikatini berish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingandan so‘ng Institut va uning filiallari murojaat etuvchi (tinglovchi)ga malaka sertifikatini beradi.

13-bob. Yakunlovchi qoida

80. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi
to‘g‘risidagi nizomga
1-ILOVA

Qayta tayyorlash haqida davlat namunasidagi

DIPLOM

Qayta tayyorlash to‘g‘risidagi diplom muqovasi tomonlari 148x210 mm o‘lchovda yaxlit qoplangan to‘q yashil rang sun’iy charmdan tayyorlangan ko‘rinishga ega.

Uning yuz tomoni yuqori qismida tilla rangda, lotin yozuvidagi o‘zbek tilida “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI” so‘zlari pastroqda bosma naqsh usulida O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri, “JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICNA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASN VA MALAKASINI OSNIRISN INSTITUTI” hamda “DIPLOM” so‘zlari yozilgan.

Qayta tayyorlash to‘g‘risidagi diplom muqovasi ichki qismi qalin, tomonlari 145x200 mm o‘lchamda oq qog‘ozda ofset usulida besh xil rangdan foydalangan holda: matn uchun — qora rangda, rasmlar tasviri uchun — yashil, ko‘k, qizil ranglarda, fon uchun — och pushti rangda bosib chiqariladi.

Qayta tayyorlash to‘g‘risidagi diplomning ichki qismi chap tomonida chetidan 5 mm chekingan holda eni 22 mm bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i tasvirlangan tasma joylashtiriladi. Tasmaning yuqori qismida diametri 20 mm bo‘lgan Davlat gerbi tasviri joylashgan.

Qayta tayyorlash to‘g‘risidagi diplomning ichki qismi chap tomonida yuqorida lotin yozuvidagi o‘zbek tilida “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI. Qayta tayyorlash haqida DIPLOM” so‘zlari bosiladi. “DIPLOM” so‘zidan pastroqda QT ikki lotin harfi va olti xonalik sondan iborat bo‘lgan raqam to‘q pushti rangda bosiladi.

Shuningdek, diplom blankasining o‘ng tomoni quyi qismida fonsiz 35x35 mm o‘lchamda QR-kod tizimi joylashtiriladi.


Diplom:

bosib chiqarishning ikki usuli — asosiy qism uchun ofset bosma usuli, raqamlarni chop etish uchun yuqori usuli;


yorug‘lik vositasida nusxa ko‘chirishni qiyinlashtirish uchun ochiq ranglar;
naqshli rastr;
har xil rangli rastrlardan foydalanish yo‘li bilan turli ranglarni tashkil etish;
maxsus qog‘ozlar;
o‘zgaradigan raqamlardan iborat tartib raqami qo‘llangan holda oltita himoyaga ega.

QAYTA TAYYORLASH HAQIDAGI DIPLOMNING SHAKLI

Diplomning muqovasi



Diplomning ichki tomoni



Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Ijrochilar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati
1-bosqich	Sport vazirligi, tizimida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislari mavjud vazirliklar, idoralar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar	Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar	Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar (buyurtmachi) va jismoniy shaxslar (talabgor) Sport vazirligiga (Vazirlik) kurslarda ta’lim olishga talabgorlar ro‘yxatini (jismoniy shaxslar — ariza) taqdim etadi	Buyurtmachi va talabgor-jismoniy shaxs murojaatiga (arizasiga) muvofiq
		Sport vazirligi (mas’ul), Institut (ijrochi)	Talabgorlar (tinglovchilar) ro‘yxatini va guruhlarni shakllantiradi	Guruhlar shakllanishi uchun zarur tinglovchilar sonidan kelib chiqib
2-bosqich	Institut tinglovchilari	Vazirlik, Institut	Institut rahbari va buyurtmachi (tinglovchi)	Buyurtmachi va talabgor

			o‘rtasida tegishli shartnoma tuziladi	murojaatiga (arizasiga) muvofiq
		Buyurtmachi (tinglovchi)	Buyurtmachi (tinglovchi) shartnomada belgilangan to‘lovlarni amalga oshiradi	10 kun ish kunida
3-bosqich	Vazirlik, Institut, tinglovchi (buyurtmachi)	Vazirlik (mas’ul), Institut (ijrochi)	Buyurtmachi (tashkilot) shartnomada belgilangan to‘lovlarni amalga oshirishi va mablag‘lar tegishli hisobvaraqqa tushishi bilan Institut kurslar boshlanishi va yakunlanishi bo‘yicha reja-jadvalni tasdiqlaydi	3 ish kunida
4-bosqich	Vazirlik, Institut, tinglovchi (buyurtmachi)	Institut (ijrochi), buyurtmachi (tinglovchi)	1. Institut kurslar boshlanishi to‘g‘risida buyurtmachi (tinglovchi)ni xabardor qiladi. 2. Buyurtmachi (tinglovchi) belgilangan muddatda o‘qish jarayoniga va to‘lov-shartnoma shartlarini bajarishga kirishadi.	Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq
5-bosqich	Vazirlik, Institut, tinglovchi (buyurtmachi)	Institut (ijrochi), Buyurtmachi (tinglovchi)	Kurslarga tinglovchilarni qabul qilish to‘g‘risida Institut rahbarining buyrug‘i rasmiylashtiriladi hamda tinglovchi kurslarga o‘z vaqtida kelmaganligi (tinglovchi 36 soatdan ortiq dars qoldirsa kurslardan chetlatiladi) to‘g‘risida buyurtmachi va Vazirlikka darhol xabar beradi	Kurslar boshlanishi sanasidan boshlab 3 kun davomida
6-bosqich	Institut, tinglovchi	Institut (ijrochi), tinglovchi	Onlayn kirish testi asosida tinglovchining dastlabki bilim darajasi aniqlanadi. O‘quv jarayonida (ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, onlayn dars, seminar trening, ko‘chma mashg‘ulot, pedagogik amaliyot, mahorat saboqlari, interfaol, masofaviy va boshqa	Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq pedagogik va kasbiy qayta tayyorlash davomida

			shakllar) tinglovchilar bilim oladi.	
		Institut (ijrochi), Attestatsiya komissiyasi, tinglovchi	Tinglovchilarning yakuniy attestatsiyasi suhbat va onlayn test sinovlari asosida umumiy 100 ballik tizimda baholanadi	
7-bosqich	Institut, tinglovchi	Institut (ijrochi), Attestatsiya komissiyasi, tinglovchi	Suhbat va onlayn test sinovlaridan umumiy 56 ball va undan yuqori ball to‘plagan tinglovchi yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan hisoblanadi hamda tinglovchiga davlat namunasidagi diplom beriladi Yakuniy attestatsiya suhbat va onlayn test sinovlarida 56 balldan (100 ballning 56 %) kam to‘plagan tinglovchi kurs sinovlaridan o‘tmagan hisoblanadi	Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq pedagogik va kasbiy qayta tayyorlash davomida

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
3-ILOVA

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar kasbiy faoliyati natijalarini baholash MEZONLARI

T/r	Kasbiy faoliyat natijalari (portfolio)	**Ballar** (jami 100 ball)
I. Sport ta’lim muassasalari rahbar va o‘rinbosarlari		
1.	Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ma’lumoti:	
	oliy;	10
	qayta tayyorlash.	5
2.	Rahbarlik davridagi sport-ta’lim muassasasining faoliyat samaradorligi reytingi:	
	reytingning birinchi yigirmataligida (1 — 20-o‘rinlar);	50
	reytingning ikkinchi yigirmataligida (21 — 40-o‘rinlar);	30
	reytingning uchinchi yigirmataligida (41 — 60-o‘rinlar).	20
3.	Sport toifasi uchun:	
	xalqaro toifadagi sport ustasi;	10
	sport ustasi;	5
	sport ustaligiga nomzod.	3
4.	Sport turi bo‘yicha hakamlik toifasi uchun:	

	xalqaro toifa;	5
	milliy toifa.	3
5.	O‘quv-uslubiy adabiyotlar tayyorlagani:	
	respublikada tatbiq etilgan har bir yakka mualliflikdagi namunaviy o‘quv dastur;	20
	metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiya, ishlanmalar uchun.	10
6.	Sport sinovlari natijasiga ko‘ra jismoniy tayyorgarlik darajasi:	
	I o‘rin;	5
	II o‘rin;	3
	III o‘rin.	2
II. Sport ta’lim muassasalari yo‘riqchi-uslubchilari		
1.	Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ma’lumoti:	
	oliy;	10
	qayta tayyorlash;	7
	o‘rta-maxsus.	5
2.	Sport toifasi uchun:	
	xalqaro toifadagi sport ustasi;	10
	sport ustasi;	5
	sport ustaligiga nomzod.	3
3.	Malaka toifasi uchun:	
	oliy toifa;	15
	birinchi toifa;	10
	ikkinchi toifa.	5
4.	Sport turi bo‘yicha hakamlik toifasi uchun:	
	xalqaro toifa;	10
	milliy toifa.	5
5.	O‘quv-uslubiy adabiyotlar tayyorlagani:	
	respublikada tatbiq etilgan har bir yakka mualliflikdagi namunaviy o‘quv dastur;	40
	metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiya, ishlanmalar uchun.	15
6.	Sport sinovlari natijasiga ko‘ra jismoniy tayyorgarlik darajasi:	
	I o‘rin;	10
	II o‘rin;	8
	III o‘rin.	5
7.	Katta yo‘riqchi-uslubchi.	5
III. Sport turlarini rivojlantirish respublika markazlari, Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari, ixtisoslashtirilgan sport maktablari, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktablari trenerlari		
1.	Sport toifasi uchun:	
	xalqaro toifadagi sport ustasi;	5
	sport ustasi;	3
	sport ustaligiga nomzod.	2
2.	Malaka toifasi uchun:	
	oliy toifa;	5
	birinchi toifa;	5
	ikkinchi toifa.	3
3.	Sport turi bo‘yicha hakamlik toifasi uchun:	
	xalqaro toifa;	5
	milliy toifa.	3

4.	Osiyo va Paraosiyo o‘yinlari, Jahon va Osiyo chempionatlari hamda kuboklarining sovrindorini tayyorlagani uchun (har bir sportchi uchun):	
	1-o‘rin;	20
	2-o‘rin;	15
	3-o‘rin.	10
5.	O‘zbekiston chempionati va kubogi sovrindorini tayyorlagani uchun (har bir sportchi uchun):	
	1-o‘rin;	15
	2-o‘rin;	10
	3-o‘rin.	5
6.	Sport musobaqalari (turnir, liga, olimpiya cho‘qqilari) g‘olib hamda sovrindorini tayyorlagani uchun:	
	respublika;	15
	viloyat;	10
	tuman.	5
7.	O‘zbekiston milliy terma jamoa a’zosini tayyorlagani uchun (har bir sportchi uchun):	
	asosiy tarkib;	15
	zaxira tarkib.	10
8.	Sport sinovlari natijasiga ko‘ra jismoniy tayyorgarlik darajasi:	
	I o‘rin;	5
	II o‘rin;	4
	III o‘rin.	3
9.	Ochiq o‘quv mashg‘ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish:	
	umumiy o‘rta ta’lim tashkilotida;	5
	maktabgacha ta’lim tashkilotida;	4
	kasbiy ta’lim tashkilotida.	3
10.	O‘quv adabiyotlar tayyorlagani:	
	viloyat yoki respublikada tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiyalar uchun);	10
	tuman (shahar)da tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiyalar uchun);	8
	muassasa uchun tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiyalar uchun).	5
IV. Sport maktablari trenerlari		
1.	Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ma’lumoti:	
	oliy;	10
	qayta tayyorlash;	7
	o‘rta maxsus.	5
2.	Sport toifasi uchun:	
	xalqaro toifadagi sport ustasi;	5
	sport ustasi;	3
	sport ustaligiga nomzod.	2
3.	Malaka toifasi uchun:	
	oliy toifa;	5
	birinchi toifa;	5
	ikkinchi toifa.	3
4.	Sport turi bo‘yicha hakamlik toifasi uchun:	
	xalqaro toifa;	5

	milliy toifa.	3
5.	Osiyo va Paraosiyo o‘yinlari, Jahon va Osiyo chempionatlari hamda kuboklarining sovrindorini tayyorlagani uchun (har bir sportchi uchun):	
	1-o‘rin;	20
	2-o‘rin;	15
	3-o‘rin.	10
6.	O‘zbekiston chempionati va kubogi sovrindorini tayyorlagani uchun (har bir sportchi uchun):	
	1-o‘rin;	15
	2-o‘rin;	10
	3-o‘rin.	5
7.	Sport musobaqa(turnir, liga)lari g‘olib hamda sovrindorini tayyorlagani uchun:	
	respublika;	15
	viloyat;	10
	tuman.	5
8.	O‘zbekiston milliy terma jamoa a’zosini tayyorlagani uchun (har bir sportchi uchun):	
	asosiy tarkib;	15
	zaxira tarkib.	10
9.	Sport sinovi natijasiga ko‘ra jismoniy tayyorgarlik darajasi:	
	I o‘rin;	5
	II o‘rin;	4
	III o‘rin.	3
10.	Ochiq o‘quv mashg‘ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish:	
	umumiy o‘rta ta’lim tashkilotida;	5
	maktabgacha ta’lim tashkilotida;	4
	kasbiy ta’lim tashkilotida.	3
V. Sport psixologlari		
1.	Psixologiya (sport) sohasidagi ma’lumoti:	
	oliy;	10
	qayta tayyorlash.	5
2	Sport turi bo‘yicha kattalar sporti razryadi:	
	birinchi va undan yuqori;	10
	ikkinchi razryad;	8
	uchinchi razryad.	5
3.	O‘quv-uslubiy adabiyotlar tayyorlagani:	
	hammualliflikdagi o‘quv qo‘llanmalar uchun;	15
	yakka mualliflikdagi uslubiy qo‘llanma yoki uslubiy ko‘rsatma uchun;	10
	hammualliflikdagi uslubiy ko‘rsatma yoki uslubiy tavsiyalar uchun.	8
4.	Ilmiy konferensiyalarda yakka mualliflikdagi maqola va tezislar chop etish hamda ma’ruzalar bilan qatnashish:	
	xalqaro miqyosda;	15
	respublika miqyosida;	10
	viloyat miqyosida.	8
5.	Sport ta’lim muassasalarida sportchilarni psixologik tayyorlashga asoslangan seminar-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazgani (bayonnomasi):	
	Sport akademiyalari, Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari;	10

	Sport turlarini rivojlantirish respublika markazlari;	8
	Ixtisoslashgan sport maktabi, sport maktablari.	5
6.	Kasbiy faoliyati bo‘yicha seminar-trening kurslarida ishtirok etgani (sertifikat):	
	xalqaro miqyosda (onlayn);	10
	respublika miqyosida;	8
	viloyat miqyosida.	5
7.	Sport ta’lim muassasasida psixologik xizmat ishlarini tashkil etgani:	
	(psixologik ma’rifat va tashviqot, psixologik-pedagogik tashxis, psixologik profilaktika, psixologik korreksiya, psixologik maslahat, sport faoliyatiga yo‘naltirish).	15
8.	Sportchining qobiliyatlarini rivojlantirish uchun individual dasturlarni tuzgani:	
	(Aqliy va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish dasturi).	5
9.	Ochiq o‘quv mashg‘ulotlari hamda mahorat darslarini tashkil etgani va o‘tkazgani:	
	Sport turlarini rivojlantirish respublika markazlari;	10
	Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari;	8
	Sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari.	5
VI. Oliy ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishlari bo‘yicha rahbar va pedagog kadrlari		
1.	Ochiq o‘quv mashg‘ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish:	
	maktabgacha ta’lim tashkilotida;	5
	umumiy o‘rta ta’lim tashkilotida;	5
	kasbiy ta’lim tashkilotida;	5
	sport ta’lim muassasasida.	5
2.	Xalqaro va respublika miqyosidagi fan olimpiadalari, sport musobaqalari sovrindorlarini tayyorlagani uchun:	
	xalqaro miqyosda;	5
	respublika miqyosida.	3
3.	Ilmiy konferensiyalarda ma’ruza bilan qatnashish:	
	xalqaro miqyosda;	5
	respublika miqyosida.	3
4.	Ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish:	
	xalqaro ma’lumotlar bazasiga kiritilgan yuqori reytingli ilmiy jurnallar yoki “impakt-faktor”ga ega bo‘lgan ilmiy jurnallarda;	10
	respublika miqyosidagi jurnallarda.	5
5.	Ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish:	
	ixtiro (patent);	10
	ratsionalizatorlik taklifi;	6
	innovatsion ishlanmalarga mualliflik.	4
6.	O‘quv adabiyotlari (darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘llanma) tayyorlash va nashrdan chiqarish:	
	darslik hammualliflikda;	15
	o‘quv qo‘llanma hammualliflikda.	10
7.	Ilmiy daraja va unvoni uchun.	15
8.	“Universiada” sport musobaqasi g‘olib xamda sovrindorini tayyorlagani uchun:	

	respublika;	20
	viloyat (shahar).	10
9.	Trenerlik yoki trener-yo‘riqchilik faoliyat(lari)n bilan shug‘ullanayotganligi uchun (malaka oshirish davriga muvofiq).	5
10.	Darsdan tashqari sport turlari bo‘yicha to‘garaklar soni:	
	sport turi — 2 ta;	10
	sport turi — 1 ta.	8
VII. Kasbiy ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari (jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashtirilganlar bundan mustasno)		
1.	Malaka toifasi uchun:	
	oliy toifa;	10
	birinchi toifa;	8
	ikkinchi toifa.	5
2.	Sport toifasi uchun:	
	xalqaro toifadagi sport ustasi;	10
	sport ustasi;	8
	sport ustaligiga nomzod;	5
	birinchi toifa.	3
3.	Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha turli ko‘rik-tanlov va musobaqalar g‘oliblarini tayyorlagani uchun:	
	respublika;	10
	viloyat;	8
	tuman (shahar) (ko‘pi bilan 2 ta natija).	5
4.	“Barkamol avlod” sport musobaqasi g‘olib hamda sovrindorini tayyorlagani uchun:	
	respublika;	30
	viloyat;	20
	tuman.	10
5.	Trenerlik yoki trener-yo‘riqchilik faoliyat(lari)i bilan shug‘ullanayotgani uchun (malaka oshirish davriga muvofiq).	5
6.	Ochiq o‘quv mashg‘ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish:	
	umumiy o‘rta ta’lim tashkilotida;	5
	maktabgacha ta’lim tashkilotida;	4
	professional ta’lim muassasasida.	z
7.	Darsdan tashqari sport turlari bo‘yicha to‘garaklar soni:	
	sport turi — 2 ta;	5
	sport turi — 1 ta.	3
8.	Sport sinovlari natijasiga ko‘ra jismoniy tayyorgarlik darajasi:	
	I o‘rin;	10
	II o‘rin;	5
	III o‘rin.	3
9.	O‘quv-uslubiy adabiyotlar tayyorlagani:	
	viloyat yoki respublikada tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiyalar uchun);	15
	tuman (shahar)da tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiyalar uchun);	10
	muassasa uchun tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiyalar uchun).	5
VIII. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari		

1.	Malaka toifasi uchun:	
	oliy toifa;	10
	birinchi toifa;	8
	ikkinchi toifa.	5
2.	Sport toifasi uchun:	
	xalqaro toifadagi sport ustasi;	10
	sport ustasi;	8
	sport ustaligiga nomzod;	5
	birinchi toifa.	l
3.	Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha turli ko‘rik-tanlov va musobaqalar g‘oliblarini tayyorlagani uchun:	
	respublika;	10
	viloyat;	8
	tuman (shahar) (ko‘pi bilan 2 ta natija).	5
4.	“Umid nihollari” sport musobaqasi g‘olib hamda sovrindorini tayyorlagani uchun:	
	viloyat;	15
	tuman.	10
5.	Jismoniy tarbiya fan olimpiadasining g‘olib va sovrindorlarini tayyorlagani uchun:	
	respublika;	20
	viloyat;	15
	tuman.	10
6.	Trenerlik yoki trener-yo‘riqchilik faoliyat(lari)i bilan shug‘ullanayotgani uchun (malaka oshirish davriga muvofiq).	5
7.	Ochiq o‘quv mashg‘ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish:	
	maktabgacha ta’lim tashkilotida;	5
	sport ta’lim muassasasida;	4
	umumiy o‘rta ta’lim tashkilotida.	3
8.	Darsdan tashqari sport turlari bo‘yicha to‘garaklar soni:	
	sport turi — 2 ta;	5
	sport turi — 1 ta.	3
9.	Sport sinovlari natijasiga ko‘ra jismoniy tayyorgarlik darajasi:	
	I o‘rin;	10
	II o‘rin;	5
	III o‘rin.	3
10.	O‘quv-uslubiy adabiyotlar tayyorlagani:	
	viloyat yoki respublikada tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiyalar uchun);	10
	tuman (shahar)da tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiyalar uchun);	8
	muassasa uchun tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiyalar uchun).	5
IX. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya yuriqchilari		
1.	Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ma’lumoti:	
	oliy;	10
	qayta tayyorlash;	5
	o‘rta maxsus.	
2.	Malaka toifasi uchun:	

	oliy toifa;	10
	birinchi toifa;	8
	ikkinchi toifa.	5
3.	Sport toifasi uchun:	
	xalqaro toifadagi sport ustasi;	10
	sport ustasi;	8
	sport ustaligiga nomzod;	5
	birinchi toifa.	3
4.	Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha turli ko‘rik-tanlov va musobaqalarda erishgan yutuqlari uchun:	
	respublika;	20
	viloyat;	15
	tuman.	10
5.	Trenerlik yoki trener-yo‘riqchilik faoliyat(lari)i bilan shug‘ullanayotgani uchun (malaka oshirish davriga muvofiq).	10
6.	Ochiq o‘quv mashg‘ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish:	
	sport ta’lim muassasasida;	10
	maktabgacha ta’lim tashkilotida.	5
7.	Sport turlari bo‘yicha to‘garaklar tashkil etganligi:	
	sport turi — 2 ta;	10
	sport turi — 1 ta.	5
8.	Sport sinovlari natijasiga ko‘ra jismoniy tayyorgarlik darajasi:	
	I o‘rin;	10
	II o‘rin;	5
	III o‘rin.	3
9.	O‘quv-uslubiy adabiyotlar tayyorlagani:	
	viloyat yoki respublikada tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiyalar uchun);	10
	tuman (shahar)da tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiyalar uchun);	8
	muassasa uchun tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiyalar uchun).	5

Izoh. O‘zbekiston Respublikasi sport vaziri buyrug‘iga asosan ushbu mezonlarga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin/

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
4-ILOVA

Malaka oshirish haqida davlat namunasidagi

MALAKA SERTIFIKATI

Malaka oshirish to‘g‘risidagi malaka sertifikati muqovasi tomonlari 148x210 mm o‘lchovda yaxlit qoplangan to‘q ko‘k rang sun’iy charmdan tayyorlangan ko‘rinishga ega.

Uning yuz tomoni yuqori qismida tilla rangda, lotin yozuvidagi o‘zbek tilida “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI” so‘zlari pastroqda bosma naqsh usulida O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri, “JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICNA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASN VA MALAKASINI OSNIRISN INSTITUTI” hamda “MALAKA SERTIFIKATI” so‘zlari yozilgan.

Malaka oshirish to‘g‘risidagi sertifikat muqovasi ichki qismi qalin, tomonlari 145x200 mm o‘lchamda oq qog‘ozda ofset usulida besh xil rangdan foydalangan holda: matn uchun — qora rangda,

rasmlar tasviri uchun — yashil, ko‘k, qizil ranglarda, fon uchun — och pushti rangda bosib chiqariladi.

Malaka oshirish to‘g‘risidagi sertifikatning ichki qismi chap tomonida chetidan 5 mm chekingan holda eni 22 mm bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i tasvirlangan tasma joylashtiriladi. Tasmaning yuqori qismida diametri 20 mm bo‘lgan Davlat gerbi tasviri joylashgan.

Malaka oshirish to‘g‘risidagi sertifikatning ichki qismi chap tomonida yuqorida lotin yozuvidagi o‘zbek tilida “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI. Malaka oshirish haqida MALAKA SERTIFIKATI” so‘zlari bosiladi. “MALAKA SERTIFIKATI” so‘zidan pastroqda MS ikki lotin harfi va olti xonalik sondan iborat bo‘lgan raqam to‘q pushti rangda bosiladi.

Shuningdek, malaka sertifikati blankasining o‘ng tomoni quyi qismida fonsiz 35x35 mm o‘lchamda QR-kod tizimi joylashtiriladi.

Malaka sertifikati:

bosib chiqarishning ikki usuli — asosiy qism uchun ofset bosma usuli, raqamlarni chop etish uchun yuqori usuli;

yorug‘lik vositasida nusxa ko‘chirishni qiyinlashtirish uchun ochiq ranglar;

naqshli rastr;

har xil rangli rastrlardan foydalanish yo‘li bilan turli ranglarni tashkil etish;

maxsus qog‘ozlar;


o‘zgaradigan raqamlardan iborat tartib raqami qo‘llangan holda oltita himoyaga ega.

MALAKA OSHIRISH HAQIDAGI MALAKA SERTIFIKATINING SHAKLI

Malaka sertifikatining muqovasi



Malaka sertifikatining ichki tomoni


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

Malaka oshirish haqida

MALAKA SERTIFIKATI

MS № 000000

Qayd raqami: _____

Berilgan sana: 20__ yil “__ ”_____

Mazkur malaka sertifikati egasi

_____

(Familiyasi, ismi, otasining ismi)

_____

20___ yil _____ dan 20___ yil _____ gacha

_____

(Ta’lim muassasasining nomi)

_____ da

_____ soatli

(Malaka oshirish kursining nomi)

_____

_____

bo‘yicha malakasini oshirdi.

Rektor _____ _____

Rektor imzosi (Familiyasi, ismi, otasining ismi)

M.O‘.

QR-kod

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
5-ILOVA

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni malakasini oshirish kurslarini tashkil etish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Ijrochilar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati
1-bosqich	Sport vazirligi tizimida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislari mavjud vazirliklar, idoralar va tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar	Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar	Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar (buyurtmachi), jismoniy shaxslar (talabgor) Sport vazirligiga (Vazirlik) kurslarda ta’lim oluvchilar ro‘yxatini (jismoniy shaxslar — ariza) taqdim etadi	Har yili 15-noyabrga qadar
		Sport vazirligi (mas’ul), Institut va filiallar (ijrochi)	Talabgorlar (tinglovchilar) ro‘yxatini va guruhlarni shakllantiradi	Guruhlar shakllanishi uchun zarur tinglovchilar

				sonidan kelib chiqib
2-bosqich	Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (Institut) tinglovchilari	Vazirlik, Institut	Institutda Vazirlik tomonidan tasdiqlangan yillik reja va ro‘yxat bo‘yicha (joriy yilda rejaga kiritilmagan va kursdan chetlatilgan yoki yakuniy attestatsiya sinovlaridan o‘ta olmagan tinglovchilar Institut va filiallar rahbari o‘rtasida tegishli shartnoma bo‘yicha) o‘rnatilgan tartibda tinglovchilar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etiladi	Tasdiqlangan yillik reja asosida (10 kun davomida)
			Institut va uning filiallari tinglovchilarga shart-sharoitlarni yaratadi va ko‘maklashadi	
		Buyurtmachi (tinglovchi	Buyurtmachi (tinglovchi) tasdiqlangan yillik reja va ro‘yxat bo‘yicha belgilangan muddatlarda tinglovchilarni kurslarga qatnashishini ta’minlaydi (shartnoma asosidagi tinglovchilar belgilangan to‘lovlarni amalga oshiradi)	
3-bosqich	Vazirlik (mas’ul), Institut (filiallar), tinglovchi (buyurtmachi)	Vazirlik (mas’ul), Institut va filiallar (ijrochi)	Buyurtmachi (tashkilot) shartnomada belgilangan to‘lovlarni amalga oshirishi va mablag‘lar tegishli hisobvaraqqa tushishi bilan Institut kurslar boshlanishi va yakunlanishi bo‘yicha reja-jadvalni tasdiqlaydi	3 ish kunida
4-bosqich	Vazirlik (mas’ul), Institut (filiallar), tinglovchi (buyurtmachi)	Institut (ijrochi), Buyurtmachi (tinglovchi)	Institut ta’lim kurslari boshlanishi to‘g‘risida buyurtmachi (tinglovchi)ni xabardor qiladi, buyurtmachi (tinglovchi) belgilangan muddatda o‘qish jarayoniga va shartnoma shartlarini bajarishga kirishadi	Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq

5-bosqich	Vazirlik (mas’ul), Institut (filiallar), Tinglovchi (buyurtmachi)	Institut va filiallar (ijrochi), buyurtmachi (tinglovchi)	Kurslarga tinglovchilarni qabul qilish tasdiqlangan rejaga muvofiq rasmiylashtiriladi hamda tinglovchi kurslarga o‘z vaqtida kelmaganligi to‘g‘risida buyurtmachi va Vazirlikka darhol xabar beradi	Kurslar boshlanishi sanasidan boshlab 3 kun davomida
6-bosqich	Institut (filiallar), tinglovchi	Institut va filiallar (ijrochi), tinglovchi	Onlayn kirish testi asosida tinglovchining dastlabki bilim darajasi aniqlanadi. O‘quv jarayonida (ma’ruza, onlayn ma’ruza, interfaol seminarlar, video darslar, amaliy va ko‘chma mashg‘ulot, tajriba almashish, mahorat darslari, pedagogik amaliyot, mustaqil o‘qish, masofadan o‘qitish va boshqa shakllar) tinglovchilar bilim oladi.	Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq (1 oylik kurslar davomida)
		Institut va filiallar (ijrochi), Attestatsiya komissiyasi, tinglovchi	Attestatsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich kasbiy faoliyat natijalari, ikkinchi bosqich yakuniy onlayn test sinovlaridan iborat bo‘ladi. Birinchi bosqich natijalariga ko‘ra umumiy 100 balldan kamida 56 ball (56 foiz) yoki ikkinchi bosqich natijalariga ko‘ra umumiy 50 balldan 28 ball (56 foiz) to‘plagan tinglovchi attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan hisoblanadi.	
7-bosqich	Institut (filiallar), tinglovchi	Institut (ijrochi), Attestatsiya komissiyasi, tinglovchi.	Attestatsiyani birinchi bosqichida 56 ball yoki ikkinchi bosqichida 28 ball to‘plagan tinglovchi attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan hisoblanadi va unga Davlat namunasidagi sertifikat beriladi. Muqobil malaka oshirish shakllaridan birini amalga oshirgan tinglovchilarga Institut va filiallarda o‘tkazilgan	1 kun (ish kuni)da kurs sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan tinglovchiga sertifikat beriladi yoki o‘ta olmagan tinglovchilar ro‘yxati e’lon qilinadi

			mahorat darsi natijasiga ko‘ra Attestatsiya komissiyasining qaroriga muvofiq davlat namunasidagi sertifikat beriladi.	

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi 355-son qaroriga
4-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2018-yil 14-avgustdagi 658-son qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2019-yil 15-yanvardagi 32-son qaroriga 1-ilovaning 7-bandi.

3. Vazirlar Mahkamasining “Olimpiya zaxiralari kollejlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 12-avgustdagi 480-son qaroriga 8-ilovaning 11-bandi.

4. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida” 2019-yil 29-yanvardagi 65-son qarori.